

DIALEKTIZMLARDA QARINDOSHLIK OTLARINING AHAMIYATI

Omonova Mahliyo

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti amaliy filologiya ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi.

@mahliyoomonova53@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15163636>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek adabiy tilining adabiy til me'yorlari va uning boyishida dialektizmlarning ahamiyati haqida. Lahjalarning bo'linishi va o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: dialektizm, lahja, qarluq, qipchoq, o'g'uz, adabiy til, tasnif, shevalar tizimi, terminologiya.

THE IMPORTANCE OF KINSHIP TERMS IN DIALECTISMS

Abstract. This article discusses the literary language norms of the Uzbek literary language and the importance of dialectisms in its enrichment. Information is provided on the division of dialects and their specific features.

Keywords: dialectism, dialect, Karluk, Kipchak, Oghuz, literary language, classification, dialect system, terminology.

ЗНАЧЕНИЕ РОДСТВЕННЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ДИАЛЕКТИЗМАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются литературные языковые нормы узбекского литературного языка и значение диалектизмов в его обогащении. Была предоставлена информация о разделении и специфических особенностях диалектов.

Ключевые слова: диалектизм, наречие, карлуки, кыпчаки, огузы, литературный язык, классификация, диалектная система, терминология.

Har bir xalq o'z shevalari bilan tirikdir. Shevaga xos so'zlar xalqning milliy urf-odat va an'analarini, udumlarini, qadriyatlarini o'zida jamlagan bo'ladi. Ularda necha ming yillik tarix va asriy orzular mujassamlashgandir. Ana shulardan kelib chiqqan holda dialektizmlar orqali so'zlovchining qaysi hududda istiqomat qilishini va qaysi millatga mansubligini bilib olish mumkindir. O'zbek adabiy tilining boyish manbalaridan biri- sheva. Faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, boshqa hududda yashovchi o'zbek tili vakillari uchun xos bo'lmagan so'zlar hududiy chegaralangan (shevaga xos) so'zlar yoki dialektizm deyiladi. "Sheva" so'zining etimologiyasiga nazar tashlasak, fors. — harakat tarzi, tarz, usul — tilning fonetik, grammatik va lug'aviy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik hududiy ko'rinishi — sezilarli lisoniy tafovutlari bo'lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq) da yashovchilarning so'zlashuv vositasi sifatida qo'llanadi.

Sheva — bu boshqa Sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, soʻz yasalishi va lugʻaviy belgilariga koʻra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud boʻladi. Oʻzbek shevalaribir necha olimlar tomonidan turlicha tasnif qilingan. Bu sohada professor I.I.Zarubin, E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, Gʻozi Olim, A.K.Barokov, V.V.Reshetovlarning tasnifi diqqatga sazovordir.

Oʻzbek sheva va lahjalari 3 turga boʻlinadi.

I.Janubiy-sharqiy guruh: qarluq-chigil-uygʻur shevalari. Bu hududlarga Toshkent, Zarafshon vodiysi va ularga yaqin shahar aholisining tili kiradi. Bu lahjada qaratqich kelishigining qoʻshimchasi yoʻq boʻlib uning oʻrniga ham tushum kelishigi qoʻshimchasi –ni ishlatiladi: ukamni daftari. Bu shevalarga eng muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

1.Soʻz oxiridagi k tovushi y tarzida aytiladi: bilak-bilay, elak-elay,

2.Bu lahjaga kiruvchi shevalar uchun "o"lashish muhimdir: oka, kotta, (adabiy tilda aka, katta boʻladi).

3.Hozirgi zamon davom feʼli -vot (Toshkentda kevotti, yurvotti), -op Samarqand, Qashqadaryo, Buxoroda (kelopti, boropti) kabi qoʻshimchalar bilan hosil boʻladi. Ruscha oʻzlashmalar Samarqand shahri qarluq lahjasida oʻzining sinonimlariga ega emas, balki maʼlum bir aniq tushunchalarni anglatgani uchun ham faol qoʻllaniladi. Samarqand shahri lahjalari 14ta leksik-semantik guruhlariga boʻlib oʻrganiladi. Masalan, Eee ana buvim bizni uyga kelopti.

II.Janubiy-gʻarbiy guruh:oʻgʻuz lahjasi. Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Xazorasp, Qoʻshkoʻpir va Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni oʻz ichiga oladi. Belgilari:

1. Unlilar qisqa va choʻziq aytiladi: aad (ism);

2. Qaratqich kelishigi –ning qoʻshimchasi –ing tarzida, joʻnalish qoʻshimchasi–ga qoʻshimchasi esa –a, -na tarzida aytiladi: onamga-opama, alina(qoʻliga)

3.Soʻz boshidagi t tovushi d; k tovushi g tarzida aytiladi: dil-til, galdi-keldi.

4.Oʻgʻuz lahjasida rayhon soʻzi oʻrnida nozvoy, juda oʻrnida dim, yangi oʻrnida toza soʻzlari ishlatiladi.

III.Shimoliy-gʻarbiy guruh: qipchoq shevasi. Ushbu lahjaga koʻp hududlar kiradi: Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlarini misol qilib olamiz.

1.Ayrim shevalarda soʻz boshidagi y tovushi oʻrniga j aytiladi: joʻl-yoʻl, jomgʻir-yomgʻir. “Kuyov jigit bulib ketibsiz-ku, Tirkaship”, -dedi muallim kulib. L.Boʻrixon “Quyosh hali botmagan”

2.Koʻpincha soʻz oxiridagi gʻ tovushi oʻrniga v tovushi aytiladi: tov-togʻ, shov-shuv. “Bu tovlar necha kulfatlarni koʻrmagan”. L.Boʻrixon “Quyosh hali botmagan”

3.Soʻz oxirida k, q tovushlari tushiriladi: sari-sariq, kichi-kichik.

Adabiy til — muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. „Qayta ishlangan“ tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til o'zgarib turgan). Adabiy til shevalardan muqobilini tanlab olish natijasida boyib boradi.

Badiiy adabiyotda shevaga xos so'zlarning qo'llanilishi asarning ta'sirchanligini oshiradi.

Xalq shevalarini bilish, dialektal leksekadan boxabar bo'lish yozuvchi va shoirlarimiz asarlari va satrlariga singdirilgan ma'noni chuqurroq anglash, asarda tasvirlanayotgan voqea hodisalar milliy koloritga sho'ng'ish imkonini beradi. Yozuvchi va shoirlar qaysi yurt farzandi bo'lmasin, o'z ijodida sheva unsurlari va xalqning ma'naviy mulkidan foydalanadi. Misol uchun, surxon yurtining serqirra ijodkori SH.Xolmirzayev asarlarida shevaga xos so'zlarning unumdorligini kuzatishimiz mumkin:” Uning otasi Rahmon polvon 40 yoshida ham kurashdan yiqilmagan, keyin bir o'rta yashar, o'rtacha polvon bir qoqmada yiqitib quyganida –dardi shunchalikki, omborga bo'yra tushab, ustidan suv sepib, unga bag'rini berib yota –yota oldin yo'talni orttirib, keyin qon qusa-qusa o'lib ketgandi” (“Omon ovchining o'limi”).

Ushbu gapdagi “qoqma” so'zi kurashda chalib yiqitish ma'nosini bildiradi. Bu so'z boshqa hududda istiqomat qiluvchilar uchun tushunarsiz bo'lishi tabiiy hol, albatta. Ammo SH.Xolmirzayev ushbu dialektizmni qo'llash orqali o'sha hududga xos bo'lgan milliy an'ana va odatlarni ifodalaydi. Yozuvchining o'z yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatini xalqning cheksiz boyligi bo'lgan sheva so'zlardan foydalanganda deb bilishimiz mumkin.

Quyida adabiy til va shevalarning bir-biridan farqini qarindoshlik otlari misolida ko'ramiz:

Birinchi, Namangan shevasi va adabiy til shevalaridagi farqlar:

Adabiy til	Namangan shevasi
Ota	Opodda
Ona	Aba yoki acha (ayrim hududlarda)
Opa	Opa
Aka	Aka
Bobo	Obodda
Buvi	Acha
amaki	Kotta dada

Yuqoridagi tilda adabiy til me'yorlaridan sezilarli darajada farqlarni ko'rishimiz mumkin.

Endi Andijon shevasi va adabiy tildagi tafovutlarni ko'ramiz:

Bobo	Opoqi, oto katta dada
Buvi	Ena
Ota	Dada
Ona	Aya

Opa	Opa
Aka	Aka
Amaki	Amaki

Ushbu tilda biz qarindoshlik otlaridan uncha ko‘p farqni uchratmaymiz.

Endi esa vo‘ha tomonga, ya‘ni Surxondaryo shevasi va adabiy tilning farqini ko‘rib o‘tamiz. Ushbu sheva vakillari asosan j harfidan ko‘proq foydalanadi.

Bobo	Bobo
Buvi	Momo
Ota	Ota yoki dada
Ona	Ena yoki aya
Opa	Opa
Aka	Aka
Amaki	Bobo
Kelinoyi	yanga

Xorazm vohasining shevasi va adabiy til o‘rtasidagi farqlar

Bobo	Oto
Buvi	Ana
Ota	Aka
Ona	Opa
Opa	Apka
Aka	Og‘a
Amaki	Ota
Kelinoyi	Biyi

Ushbu tilda biz ko‘rishimiz mumkinki, adabiy tilga deyarli o‘xshash jihatlari yo‘q.

Navoiy shevasi va adabiy tilning farqini ko‘rib o‘tamiz.

Bobo	Bobo	
Buvi	Biyi	
Ota	Dada	
Ona	Ona	
Opa	Opa	
Aka	Aka	
Amaki	Amaki	
Kelinoyi	Yangga	

Qoraqalpog‘iston Respublikasining tili va adabiy tilning farqlari:

Bobo	Qari ata	
Buvi	Qari ena	
Ota	Ata	

Ona	Ene	
Opa	Apa	
Aka	Ag'a	
Amaki	Táte	
Tog'a	Tate	
Tog'avachcha	Tátebalam	
Jiyan	Ji'n	
Uka	Ini	
Singil	Singil	

Ma'lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos leksema dialektal leksema deyiladi.

Ular ilmiy terminologiyada dialektizm deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda va kinofilmlarda mahalliy koloritni aks ettirish, asar qahramonlari nutqini real berish maqsadida dialektizmlardan foydalaniladi. (Lekin bu dialektal leksema tilda o'rnatish degani emas, albatta. Badiiy adabiyot va kinofilmlarda shevaga xos unsurlarni ishlatish me'yor doirasida bo'lmishi kerak. Dialektal leksemani ham uning adabiy tildagi muqobiliga sinonim sanamaslik zarur. Chunki ular ham adabiy tilda so'zlashuvchi barcha kishilar uchun ijtimoiy qiymat kasb etmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona va Toshkent shevalari asos qilib olingan.

Olimlarning fikricha Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg'ona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos bo'lgan. Shevalarning o'ziga xos xususiyatlari adabiy tilning ta'siri bilan asta sekin zaiflashadi va yo'qola boradi.

REFERENCES

1. B.Tojiboyev B. Hasanov "O'zbek dialektologiyasi" Toshkent 2004
2. H.Fayziyeva "O'zbek dialektologiyasi" Toshkent 2011
3. Islomova E'zoza "Shukur Xolmirzayev asarlarida qo'llanilgan dialektizmlar tahlili" maqola 2023
4. Tillaboyeva Zilola "O'zbek shevalarining leksik xususiyatlari".
5. Savodxon. Uz sayti